

T.G'AFFOROVA, E. SHODMONOV, G. ESHTURDIYEVA

O'QISH KITOBI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik

O'n uchinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2017

UO'K 372.416.2
KBK 81.2.O'z.—922.
O'—30

Mas'ul muharrir:

Safo Matchonov, pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Dilorom Fattoxova, O'zbekiston Milliy universiteti
katta o'qituvchisi, p.f.n.;

Nazira Ahmedova, RTM Boshlang'ich ta'lim bo'limi boshlig'i;

Mazmuna Jalilova, Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi
18-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



— multimedia ilovasi



— dars tugadi

O'—30

O'qish kitobi: 1-sinf uchun darslik / Muallif-tuzuvchilar: T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva; Mas'ul muharrir: S. Matchonov. — T.: «Sharq», 2017. — 128 b.

1. G'afforova T., muallif-tuzuvchi.

UO'K 372.416.2
KBK 81.2.O'z.—922.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-26-


© G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G., 2003, 2017.
© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2003, 2017.

**Farzandlarimiz bizdan ko'ra
kuchli, bilimli, dono va albatta
baxtli bo'lishlari shart.**

ISLOM KARIMOV



**O'ZBEKISTON –
MENING VATANIM**



Vatan — bu...

Po'lat Mo'min

Vatan deganim bu —
Yurak deganim,
Yurakka Vatanim
Kerak deganim.

Vatan deganim bu —
Yurak deganim,
Birov-biroviga
Kerak deganim.

Aslida Vatan bu —
Tug'ilgan joyim,
Birinchi qadamim
Yetgan qo'rg'onim.

◆ **She'ning mazmunini tushunib oling.**


Savol:

Vatan deganda nimani tushundingiz?

Maqol:

● Vatani borning baxti bor.







Buyuklar vatani

Qutlibeka Rahimboyeva

O‘zbekiston ulug‘ odamlari — shoir-u olimlari, atoqli davlat arboblari bilan dunyoga mashhur.

Amir Temur bobomiz yurtimizda ko‘plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Madrasalar, saroylar, yo‘llar qurdirgan, bog‘lar barpo qildirgan. Temur bobomiz har qarich yerni asrashni ham o‘rgatgan.

Mirzo Ulug‘bek bobomiz osmondagi yulduzlarni sanagan. Ko‘plab yulduzlarning joyini aniqlagan.

Biz tilimizning boyligini Alisher Navoiy bobomizdan o‘rganamiz.

Savollar:

1. Buyuk bobolarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz?

Maqol:

- Ona yurtning — oltin beshiging.



Yurt qalqonlari

Dilshod Rajab



O‘zbekiston – hur Vatan,
Baxtimiz ayvonidir.
Armiyamiz mustahkam,
Ona yurt qalqonidir.

Harbiy xizmat faxrimiz –
Bu mardlar maydonidir.
Jasur askar akalar
Ona yurt qalqonidir.

◆ She’rni ifodali o‘qing.

Savol:

14-yanvar qanday kun?

Maqol:

- Ona yurtning omon bo‘lsa,
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.

Tez aytish:

- Bahodir bayroqni Botirga berdimi,
Botir Bahodirga bayroqni berdimi?





Ota rozi — Vatan rozi

Eson Rahimov

Yaxshi farzand ona yerning
Jonfidosi, deydilar.

Yaxshi farzand dono elning
Ko‘z ziyosi, deydilar.

Ota rozi — Vatan rozi,
O‘g‘lonlarim, qizlarim.

Vatan rozi — ota rozi,
Yashang, o‘chmas izlarim.

◆ **She‘rning mazmunini tushunib oling.**

Savol:

Kimlar yaxshi farzand deyiladi?





Suv — shifo

Erkin Malik

Ravshan shifokor ko'rigidan o'ta-yotganda kurak suyaklari qiyshiq o'sayotganligi ma'lum bo'lib qoldi.

— Endi nima qilamiz, do'xtir? — xavotirga tushdi dadasi.

— Oldini olsa bo'ladi. Buning uchun suzish bilan shug'ullanish kerak.

— Suv sovuq-ku, — deb yubordi Ravshan shoshib.

— Sen xavotir olma, — dedi shifokor kulib. — Shahrimizda shunday suv havzalari borki, qishda ham suvi yozdagidek iliq bo'ladi.

Ota-bola xursand bo'lib, shifokor tavsiya etgan sport majmuasini izlab ketishdi.

Savollar:

1. Shifokor nega Ravshanga suzishga qatnashishni maslahat berdi?
2. Siz sportning qanday turi bilan shug'ullanasiz?





Qish

Tursunboy Adashboyev

Shudgor uzra uvullar
Ayoz bobo bo'roni.
Mehmon bo'ldi qish fasli
Oq choyshabga o'ranib.

Bundan buyon ko'cha-ko'yda
Piyma, etik g'archillar.
Tinim bermas chanalarga
Shokir, Ra'no, Barchinlar.

Savol:

Qish fasli sizga nimasi bilan yoqadi?

Maqol:

- Qish g'amini yozda ye.

Topishmoqlar:

- Qishda terlab ishlaydi,
Boshqa mahal qishlaydi.

(Pechka)

- Tunukani chertadi,
Kesaklarni kertadi.
Biroz «sho'xlik» qilgach u,
Yerga singib ketadi.

(Do'l)

- Qish chog'i kapalaklar
Uchib yurar osmonda.
Qiziq, yo'qolib qolar
Kaftimga qo'ngan onda.

(Qorparcha)

Tez aytish:



- Qishda kishmish pishmashmish,
Kishmish pishsa, qishmashmish.



Oy allasi

Odil Abdurahmon

Oy — ona emish,
Bolasi — yulduz.
Alla aytarmish:
— Oppog‘im qunduz,
Ko‘zim nurini
Senga tutdim-o,
Otangday bo‘l, deb
Yo‘ling kutdim-o.
Otam qayda, deb
So‘rama, bolam.
Otang — Quyoshdan
Bahramand olam.



◆ **She‘rni ifodali o‘qing.**

Savollar:

1. Oy-ona bolasi yulduzga nimalar haqida so‘zladi?
2. Quyosh, oy, yulduzlar kimlarga o‘xshatilgan?





Shamol va quyosh

Ezop

Bir kuni shamol va quyosh bahs-lashib qolibdi. Ular bu tortishuvni yo'lda ketayotgan yo'lovchi yordamida hal qilishga kelishishibdi. Kim birinchi bo'lib yo'lda ketayotgan yo'lovchining egnidagi po'stinini yecha olsa, o'sha kuchli hisoblana-digan bo'libdi. Shamol o'z navbatidan foydalanib qattiq esa boshlabdi. Yo'ldagi odam yurishga qiynalib, zo'rg'a qadam tashlabdi. Shamol kuchaygani sayin yo'lovchi ham po'stiniga mahkamroq o'ranib olave-ribdi. Qancha harakat qilmasin, yo'lovchining po'stinini shamol yecha olmabdi. Navbat quyoshga

kelibdi. Quyosh o'zining iliq nurlarini sochibdi. Keyin esa taftini zo'raytirib, yo'lovchini qizdira boshlabdi. Shunda yo'lovchi isib ketganini his qilibdi va ustidagi po'stinini yechibdi.

Qissadan hissa shuki, ko'p narsaga zo'ravonlik bilan emas, oliyjanoblik bilan erishsa bo'ladi.

Savollar:

1. Shamol va quyosh nima uchun bahslashib qolishdi?
2. Shamol bahsda nima uchun quyoshdan yengildi?
3. Oliyjanoblik qanday xislat?

Tez aytish:

- Qo'ng'iroq qo'g'irchoqniki, qo'zichoqniki?

Topishmoq:

- Yungi igna,
Burni tugma,
Ko'zi munchoq,
Bag'ri yumshoq.



Vatan

Miraziz A'zam

Vatan — bizning uyimiz,
Vatan — bizning ko'chamiz,
Soylardagi suvimiz
Mazza qilib ichamiz.

Vatan — bizning tog'imiz,
Olma-anor bog'imiz,
Bug'doy, arpa dalamiz,
O'ynab mazza qilamiz.

Oltin to'la konimiz,
Tandir to'la nonimiz.
Vatan — maktab-onamiz,
O'qishni o'rganamiz.

◆ She'ni ifodali o'qing.

Savollar:

1. Sizing vatanningiz qayer?
2. O'zingiz yashaydigan shahar, qishloq, mahalla, ko'cha nomlarini ayting.





Yagonadir Vatanning sening

Xurshid Davron

Vatan nima o‘zi?

Donishmandlarning biri: «Vatan — bu sening kindik qoning tomgan tuproq», — desa, ikkinchisi: «Sen suygan odamlar manzili!» — deydi.

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. Vatan — ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa — ona diyorumizga, uning bepoyon dalalariga, qir-adirlariga, moviy tog'lariga, dasht-u sahrolariga bo'lgan muhabbatdir.

Savollar:

1. Vatan deganda nimani tushundingiz?
2. Inson uchun eng aziz narsa nima?
3. Vatanga muhabbatni nima bilan izohlaysiz?

Maqol:

- Bulbul chamanni sevar,
Odam — Vatanni.

Tez aytish:



- Komil kecha ko'chat ko'chirdi.

BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma


Qator katakchalarini unli harflar qo‘yib to‘ldirsangiz, kitobingizning shu bo‘limiga oid gap kelib chiqadi.

1		l		g'	b		k			
2	t		g'		l	g		n		
3		z	b		k		s	t		n
4	b		y		k	l		r		
5	v		t		n					

1. Munajjim bobomiz. 2. Dunyoga kelishni bildiruvchi so‘z. 3. Vatanimiz nomi. 4 va 5. Ikkinchi dars mavzusi.


Rebus

«Oy allasi» she‘ri asosida rebusni yeching.



Boshqotirma

«Qish» she'ridagi so'zlardan foydalanib, katakchalarni to'ldiring.



Savol va topshiriqlar:

1. Buyuk ajdodlarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. «Vatan — bu...» she'rini yoddan aytib bering.
3. Shoir «Ota rozi — Vatan rozi» deganda nimani nazarda tutgan?
4. Qishda diyorumiz tabiatida qanday o'zgarishlar bo'ladi?
5. Shamol va quyosh bahsidan qanday xulosa chiqardingiz?



BIZ — BUYUKLAR AVLODI



Amir Temur

Muhammad Ali

Amir Temur bobomiz buyuk davlatga asos solgan. Ona yurtimiz Turkiston diyorini butun dunyoga tanitgan. «Kuch — adolatda» soʻzlari uning uzugida hamisha yarqirab turgan.

Bobomiz millat, Vatan sharafini hamma narsadan baland qoʻygan. «Olamni adl va ehson bilan obod etibmen», — degan. U bunyodkor, ilm-fan homiysi va kuchli sarkarda boʻlgan. Zukko va donishmand Amir Temur betakror siymodir.

Amir Temur o'g'itlari

1. Do'stlik haqida:

- Yaxshini yomon kunda sina.
- Sodiq va vafodor do'st o'z do'stini ranjitmaydi.
- Birliksiz kuch bo'lmas.

2. Aql va adolat haqida:

- Kuch — adolatda.
- Oq bo'lsang, ont ichma.
- Qo'rqmasang, yov qochar.
- Boshga qilich kelsa-da, rost so'zla.

Savollar:

1. Amir Temur bobomiz ona yurtimiz uchun qanday xizmatlar qilgan?
2. Amir Temur bobomiz nimani hamma narsadan baland qo'ygan?
3. Siz kimni do'st deb hisoblaysiz?
4. To'g'riso'zlik deganda nimani tushunasiz?





G'azal mulkinging sultoni

Bobomiz Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lgan. Besh-olti yoshidayoq ko'p she'rlarni yod olgan.

Bobomiz bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirgan. Bu ulug' zot shoir-larning sultoni bo'lgan.

Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari

● Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

● Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

● Yaxshi kishi yomonlardan ham yaxshiligini ayamas.

● Yaxshilikni bilmasang, yaxshilarga qo'shil.




Savol va topshiriqlar:



1. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Alisher Navoiy aytgan hikmatli so'zlarni yod oling.
3. O'zingiz bilgan hikmatli so'zlarni ayting.

Boshqotirma

Quyida berilgan mevalar rasmidan foydalanib boshqotirmani yechsangiz, maqolning davomini o'qiysiz.

Aql yoshda emas — ...

1  2  3 

4  5 

1 2 3 4 5



Alisherning yoshligi

Oybek

Kiyik Alisherni hidladi. Erkalanib surkaldi.

— Seni tanir ekan, qurmagur, xo‘b o‘rgatibsan o‘zingga, — dedi bolalardan biri.

— Rost, qoyilman! — deya ma‘qulladi ikkinchi bola.

— Tog‘am, ermak bo‘lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. Mo‘mo‘, birpasgina jim tur, — dedi kiyikni erkalab Alisher.

— Suluvligini qaranglar! Go'shti ham lazzatlidir-a? Katta bo'lsam ovchi bo'lgumdir.

— Ov qilmoq, merganlik — ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi, — dedi Alisher.

Savollar:

1. Alisherning do'sti kim bo'lishni orzu qildi?
2. Alisher hayotda nimani zaruriyat deb bildi?
3. Alisher va uning do'sti fikrlarini solishtiring. Siz nima deb o'ylaysiz?

Topishmoqlar:

● O'rkach-o'rkach tuyalar
Bir-biriga suyalar.
Qimir etmas yil, asr,
Bag'rida xazina, sir.



● Oyna emas, jimirlar,
Tek turolmas, qimirlar.



Non isi

(Rivoyat)

Bir kuni Husayn Boyqaro:

— Dunyodagi eng xushboʻy narsani keltiring, — deb qolibdi. Unga dunyodagi jamiki xushboʻy narsalarni keltirishibdi. Sulton:

— Yoʻq, — debdi.

Vazirlar nima qilishni bilmay, boshlari qotibdi. Axiyri topolmasdan Alisher Navoiyga murojaat qilishibdi.

Navoiy saroyga bir savat non olib borishni maslahat beribdi.

— Rahmat, doʻstim, — debdi Husayn Boyqaro, — yangi yopilgan non isini istayotgan edim, topib aytibsiz.

Savollar:

1. Husayn Boyqaro nima keltirishni buyurdi?
2. Navoiy vazirlarga qanday maslahat berdi?
3. Non haqida qanday maqol va hikmatli soʻzlarni bilasiz?





Abu Ali ibn Sino

Ibn Sino dunyoga mashhur hakim va olimdir. Asli ismi Husayn bo'lgan. Yoshligidan ilmga, tabobatga juda qiziqqan. Bobomiz o'z kitoblari bilan dunyo tibbiyot ilmiga asos solgan.

Abu Ali ibn Sino davolayotgan bemorlariga shunday degan: «Biz uch tarafmiz — men, sen va kasallik. Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tomonga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin».

Savollar:

1. Abu Ali ibn Sino haqida nimalarni bildingiz?



2. U kishi bemorlarga nima degan?



Kitobga mehr



Mirkarim Osim

Husayn ertalab bozorni aylanib yurgan edi. Ko'zi kitob ushlab turgan bir kampirga tushdi.

— Onajon, kitobingizni soturmisiz?

— Ha, juda yaxshi kitob.

Yigitcha bor puliga kitobni sotib oldi. Uni varaqlay boshladi. Bu kitobda Husaynni qiziqtirgan savollarga javob bor edi. Husayn bu kitobni kechasi bilan uxlamay o'qib chiqdi.

Savollar:

1. Husaynning kitobni yaxshi ko'rishini nimadan bilib oldingiz?
2. Siz qanday kitoblarni o'qishga qiziqasiz?

Topishmoq:

- Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa tashlama.





Buyuk munajjim

Mirzo Ulug'bek ham podshoh, ham olim edi. U kishi Amir Temurning nevarasi bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek o'n besh yoshidan boshlab podshohlik qilgan. Qirq yillik podshohlik davrida ko'p savob ishlarni amalga oshirgan. Samarqandda rasadxona qurdirgan. Rasadxonada osmon, oy, yulduzlar kuzatilgan. Shuning uchun u kishini buyuk munajjim, olim va shoh deyishadi.

Savollar:

1. Mirzo Ulug'bek kim bo'lgan?
2. Ulug'bek bobomiz qanday ishlarni amalga oshirgan?





Shoh va shoir

Bobur Mirzo Andijonda tugʻilgan. Uzoq yillar Hindistonda shohlik qilgan. Bizga koʻp kitoblar yozib qoldirgan. Shuning uchun ham uni shoh va shoir deyishadi.

«Boburnoma» kitobida bobomiz oʻz boshidan oʻtkazgan voqealarni yozgan. Shuningdek, unda togʻlar, gullar, qushlar, hayvonlar haqida ham oʻz fikrlarini yozib qoldirgan.

Savollar:

1. Bobur Mirzo haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. «Boburnoma» kitobida nimalar haqida yozilgan ekan?





Ona sabog‘i

G‘iyos Komilov

Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon ko‘zguna tinik, musaffo. Yetti yashar mitti Zahiriddin onajonisining yonginasida. Ona-bola o‘zaro suhbatlashadilar. Hozir farzandi derazadan ko‘kka boqib qolgan edi. U osmondagi uyum-uyum paxtani eslatuvchi bulutlarga javdirab qarardi.

— Onajon, — dedi jaji Bobur, — bulutlarni qo‘l bilan ushlab bo‘ladimi?

— Bolajonim! — jilmaydi onasi. — Momiq emaski, qo‘l bilan tutib bo‘lsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bug‘ holatida. Bug‘lardan esa bulutlar paydo bo‘ladi. Ular yomg‘ir yoki qorga aylanib yog‘ayotgandagina qo‘lingizni tutsangiz...


— Ha-a-a, angladim, angladim.

Savollar:

1. Bobur onajonisiga qanday savol berdi?
2. Onasi nima deb javob qildi? Onaning javobini kitobdan o‘qib bering.
3. Bulutlar qanday paydo bo‘lar ekan?

Topishmoqlar:

- Tikuvchiga o‘rtoq o‘zi,
Bittagina jajji ko‘zi.



- Yoz, kuz bo‘yi chirqillab,
Don tashiydi pirillab.

Tez aytish:

- Eshik oldida buloq,
Buloqdan suv ichar uloq,
Uloqcha — uzun quloq.



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH



Boshqotirma

Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz, Amir Temur amal qilgan hikmatli gap kelib chiqadi.

The crossword puzzle grid consists of 11 numbered clues, each with a corresponding illustration of an animal:


- 1: Pigeon
- 2: Eagle
- 3: Sparrow
- 4: Dove
- 5: Duck
- 6: Turtle
- 7: Partridge
- 8: Stork
- 9: Ostrich
- 10: Swift
- 11: Bee

Savol:

Darslikdagi qaysi matnda yuqoridagi hikmatli gap aytilgan?

Boshqotirma

Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz, «alloma» so'zi kelib chiqadi.



Savol va topshiriqlar:

1. Bu bo'limda kimlar haqida o'qidik?
2. Amir Temur o'gitlarini ayting.
3. Amir Temur bobomizning uzugida qanday so'zlar yozilgan ekan?
4. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Ibn Sino nimalarga qiziqqan ekan?
6. Ulug'bek bobomiz kim bo'lgan?
7. Bobur onasidan qanday saboq oldi?



KO'KLAM — YASHNAYDI OLAM



Bahor kelgach

Tursunboy Adashboyev

Qish qorini supurdi,
Quyosh nurin ufurdi,
Yalpiz hidi gupurdi
Bahor kelgach.

Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
Qizg'aldoqlar selda oqdi,
Mayin shamol
Bizga yoqdi
Bahor kelgach.

◆ She'ni ifodali o'qing.

Savol:



Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Lola

Hamid Olimjon

Lola bog'chaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi.

Sochiga gul bog'ladi,
Chakkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko'mildi butkul.

So'ngra uyga keldi-yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumildi-yu,
Gul kabi uxlab qoldi.



◆ **She'ni ifodali o'qing.**

Savollar:

1. Lola qayerga bordi?
2. Uyga kelgach nima qildi?





Ona allasi

(Rivoyat)

Qadimda bir podshoh bo'lgan ekan. U bir kuni barcha qo'shiqchilarni chaqiribdi. Ularga navbatma-navbat kuylashni buyuribdi. Lekin birorta qo'shiq ma'qul kelmabdi. Axiyri bir onaxonni keltiribdilar. U alla aytishni boshlabdi.

Podshoh qo'shiqni eshitib, yum-yum yig'labdi. Bu kuy unga onasini, beg'ubor bolaligini eslatibdi. Shuningdek, bu allada xalqning orzu-armonlari ham bayon etilgan ekan:

Senga qo‘ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdir murod, alla.
Yurt-u elga suyansang, alla,
Senga bo‘lg‘usi qanot, alla.

Savollar:

1. Podshoh nimani buyuribdi?
2. Onaxonning qo‘shig‘idan podshoh nega yig‘labdi?
3. «Alla» qanday qo‘shiq?



Mehribon oyijonim

Po‘lat Mo‘min

Juda ham a‘losiz, oyijon,
Juda ham donosiz, oyijon.
Siz meni qo‘zim, deb sevasiz,
Nur to‘la ko‘zim, deb sevasiz,
Oyijon, oyijon, oyijon.

Siz meni barchaga yaxshilab,
Quchasiz o'rgilib, erkalab.
Shu aziz boshimni silaysiz,
Menga baxt, omonlik tilaysiz,
Oyijon, oyijon, oyijon.

◆ She'ni yod oling.

Savollar:

1. Onajonlar bayrami qachon nishonlanadi?
2. Siz onajoningizni qanday tabriklaysiz?

Topishmoqlar:

- Aytsalar oyim bizga,
Uyqu keladi ko'zga.

(Alla)

- Na boshi bor, na tani,
Na joni, na vatani.
Eshitsa biror ovoz,
Javob qaytarar showvoz.

(Aks sado)



Bahor keldi

Bir kuni tongda Maftunani uyqu-dan «qurey-qurey» ovozlari uygʻotib yubordi. U oʻrnidan tura solib, dera-zadan tashqariga boqdi. Osmonda argʻimchoq solib, turnalar uchib oʻtar edi.

U onasining oldiga borib soʻradi.

– Oyijon, anavi qushlar qanday qushlar?

– Turnalar, qizalogʻim, turnalar. Ular biz tomonga bahorni olib ke-lishdi.

– Bahor kelganini qanday bilsa boʻladi, oyijon?

– Turli-tuman qushlar uchib keladi. Dalalarda maysalar yam-yashil boʻ-ladi. Daraxtlar qiygʻos gullaydi.

– Bahor unda yaxshi ekan-da?! – dedi Maftuna.



Savollar:

1. Bahorda yana qanday qushlar uchib keladi?



Bekinmashoq

Anvar Obidjon

Birgalashib uch o‘rtoq —
Men, Aziza va Qo‘shoq
Keng lolazor qo‘ynida
O‘ynardik bekinmashoq.

Bekinmoqchi bo‘lsam men,
Har lola imlab sekin,
Deydi: «Kelaqol, o‘g‘lon,
Bizning makonga bekin».

◆ **She‘rning mazmunini tushunib oling.**

Savollar:

1. Lolalar qaysi faslda ochiladi?
2. Bahorda qanday gullar ochiladi?



Navro‘z bayrami

Navro‘z yangi kun demakdir. 21-mart — Navro‘z bayrami. Navro‘zda tabiat uyg‘onadi. Birinchi bo‘lib chuchmoma, boychechaklar ochiladi. Onalarimiz sumalak pishiradilar. Yalpiz, jag‘jag‘, ismaloq kabi ko‘katlardan terib, ko‘k somsalar yopadilar. Ko‘chatlar ekilib, hovli-joylar supuriladi. Ko‘chalar tozalanib, yasatiladi. Urishganlar yarashadilar. Bayramda turli tomoshalar bo‘ladi. Hamma birgalikda o‘ynab-kuladi.

Navro‘z keldi, soz keldi,
Turna keldi, g‘oz keldi.
Yam-yashil chorbog‘lardan
Bulbulday ovoz keldi.

(Xalq qo‘shig‘i)

Savol va topshiriqlar:

1. Navro‘z qachon bayram qilinadi?
2. Navro‘zni odamlar qanday nishonlaydilar?
3. Bahorgi taomlarga solinadigan ko‘katlar nomini ayting.

Topishmoqlar:

- Oq sandig‘im ochildi,
Olamga nur sochildi.



- Dum-dumaloq barkash non,
Ko‘k yuzida suzadi.

Tez aytish:

- Gulsara gulzor oralab gul sanadi.



BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma


Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz,
«alla» so‘zi kelib chiqadi.



1



3



2



4



Bahor gullarining nomini ayting.



1



2



3



5



6

Rasmda nimalar tasvirlangan?



Savol va topshiriqlar:

1. Bahorda qanday bayramlar ni-shonlanadi?
2. Bahorda o'lkamizga qanday qushlar uchib keladi?
3. Bahorda qaysi gullar ochiladi?
4. Bahor haqida bilgan she'ringizni yoddan ayting.



ILM — AQL CHIROG‘I



Maktab — oftob qo‘shig‘i

Quddus Muhammadiy

Dunyoda eng sevgan joying
Qayer? — dedi.

Dedim: Maktab! Dedim: Oftob!

Sababin ayt, dedi. Dedim:

O‘rgatadi ilm-u odob.

Ota-onam sevar meni,

Qarog‘im, quvonchim, deb.

O‘qituvchim sevar meni,

O‘quvchim, a‘lochim, deb.

Dunyoda eng sevgan joying

Qayer? — dedi.

Dedim: Maktab! Dedim: Oftob!

◆ **She‘rni ifodali o‘qing.**





Kitobni asrang

Kitob qadim-qadimdan e'zozlangan. Ota-bobolarimiz kitobni qo'liga olganda, uni o'pib, ko'zlariga surtganlar. Bu: «Bizga bilim berasan, seni ko'z qorachig'idek asraymiz», — degani. Uning varag'ini yirtish, iflos joylarga qo'yish gunoh sanalgan. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

Savol:

Qadimda ota-bobolarimiz kitobga qanday munosabatda bo'lganlar?

Hikmatli gap:

- Kitob — bilim bulog'i.

Maqol:

- Bilimdan ortiq boylik yo'q.

Topishmoq:

- Tinmay o'qisang agar,
Ko'p narsani o'rgatar.
Bilsang, uka, o'ylab top,
Bilim koni u —



Kitobim, jon kitobim

Dilshod Rajab

Nur, ziyoga kon o‘zing,
Do‘st-u qadrdon o‘zing,
Ma‘no to‘la har so‘zing,
Kitobim, jon kitobim!

Zavq-shavqqa to‘lar dilim,
Olaman sendan bilim,
Bulbulday sayrar tilim,
Kitobim, jon kitobim!

Qo‘limdan hech qo‘ymayman,
O‘qib-o‘qib to‘ymayman,
Kelajakka bo‘ylayman,
Kitobim, jon kitobim!

◆ **She‘rning mazmunini tushunib oling.**

Maqol:

● Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir.





O'quv va bilim haqida

Yusuf Xos Hojib

O'quv, idrok, bilim haqida alohida to'xtash joizdir. O'quv, idrok qorong'i tundagi mash'alga o'xshaydi. Bilim esa mash'aldan taralayotgan nurga o'xshaydi.

O'quv qut beradi, bilim —
sharaf-shon,
Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson.

Bunga ishonmasang, shubha qilsang, ko'zingni katta och. Menga bitta hikmatli gap yaxshi ma'lum: «Bilimdon o'z bilimi tufayli balo, ofatlardan omon qoladi».

Savollar:

1. O‘quv, idrok haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Bilim nimaga o‘xshaydi?
3. O‘quv va bilim insonga nima beradi?
4. Hikmatli gapni matndan o‘qib bering.

Maqol:

- Aqlning qayrog‘i — bilim.

Tez aytish:

- Salima, Saida, Sokina sahifani sinchiklab o‘qidilar.



Topishmoqlar:

- Ikki ajib qulog‘i bor,
Biri tinglar, biri so‘zlar.



- Rangi har xil,
Nomi bir xil.





Kompyuter



Kompyuter — aqlli mashina. U insonning do'sti. Uning xotirasida minglab axborotlarni saqlash mumkin.

Agar do'stlashsangiz, ko'p sirlardan xabardor bo'lasiz. U matematikadan misol va masalalarni bir zumda yechib beradi. Kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, u darhol yordamga oshiqadi. Biror narsa yozmoqchi bo'lsangiz, u tayyor. Charchasangiz, musiqa tinglashingiz yoki kino ko'rishingiz mumkin.

Kompyuter siz bilan o'ynay oladi ham. U shaxmat, shashka o'yinlarini yaxshi biladi.

Savollar:

1. Kompyuter haqida nimalarni bildingiz?
2. Ayting-chi, kompyuter bilan do'stlashish mumkinmi?

Hikmatli gap:

- Ilm olsang dunyoda,
Aqling bo'lar ziyoda.





Yaxshi niyat

Anvar Obidjon

Hammada ham bor havas,
Mana, kichkina Avaz
Ko'kka boqar uxlamay.
Men dedim, qani, so'ray:
«Qaylarga uchdi zikring?»
U der: «Qaniydi bo'lsam
Men quruvchi-kosmonavt.
Qurar edim oyda ham
Bog'cha, maktab, internat...»

Savollar:

1. Avaz nimani xayol qilgan ekan?
2. U niyatiga yetish uchun nima qilishi kerak?
3. Sizning ham orzuingiz bormi?





Aqlli qargʻa

Abdulla Avloniy

Yoz fasli jaziramasida hamma yoqda suvlar quribdi. Bechora qargʻa suv yoʻqligidan chanqab, juda qiyinalibdi. Har tarafdanda suv axtarar ekan, birovning oldida turgan koʻzani koʻrib qolibdi. Koʻzaning yoniga kelib qarasa, ichida suv bor ekan. Lekin boʻynini suqib ichay desa, boʻyi yetmabdi. Shunda u tumshugʻi bilan toshlarni yigʻib, koʻzaning ichi-

ga tashlay boshlabdi. Birozdan so'ng ko'zaning ichidagi suv ustiga chiqibdi. Aqlli qarg'a suvdan ichib, tashnalik balosidan qutulib, uchib ketibdi.

Savollar:

1. Qarg'a jaziramada nega qiynalibdi?
2. Sarlavha nega «Aqlli qarg'a» deb nomlangan?

Hikmatli gap:

- Vaqt kutib turmaydi, har bir daqiqani g'animat bil.

Topishmoqlar:

- Suvdan bo'lgan, qotsa
Qani suvga botsa. (znW)
- «Chiq-chiq» der, yo'q to'xtovi,
Vaqtning aniq o'lchovi. (Soat)

Tez aytish:



- Tez aytgin-u, tez gapir,
Tez aytganga bir patir.






BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma

Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz, ilm manbayiga oid so‘z kelib chiqadi:

1  5 

2  3  4 

3

4

5

1

2


3



4

5

Rebus

Rebusni yechsangiz, kitob haqidagi hikmatli gap kelib chiqadi:


 —

 bi  b

~~ye~~ ~~o~~ ~~o~~ + g‘i.

Boshqotirma

O'quvchiga maktabni topib borishida yordam bering.



O'quvchiga yordam berib, qaysi hikmatli gapni o'rganib oldingiz?

Savol va topshiriqlar:

1. Kitobni qanday asrash kerak?
2. Kompyuter qanday vazifalarni bajararlar?
3. Avaz qanday niyat qildi?
4. Aqlli qarg'a suvga tashnalikdan qanday qutuldi?
5. Bilim olish haqidagi maqollardan ayting.



XALQ O‘GITI — BAXT KALITI



Sher va sichqon

(Ertak)

Oqko‘ngil sher bir kuni sichqonga yaxshilik qilgan edi. Oradan bir necha kunlar o‘tib, sher tasodifan tuzoqqa tushib qoldi. Sherning yaxshiligini sichqon esdan chiqarmagan edi. U o‘tkir tishlari bilan tuzoqni qirqib, o‘z najotkorini qutqardi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sichqon sherni nima uchun qutqardi?
2. Yaxshilikning oqibati haqida soʻzlab bering.

Hikmatli gap:

- Yaxshining yaxshiligi tegar tor yerda,
Yomonning yomonligi tegar har yerda.

Maqol:

- Yaxshilik qilsang — yaxshilik koʻ-rasan.

Topishmoq:


- Toping-chi uning nomin,
Sichqonning berar dodin?



Tez aytish:

- Qobil qozonda qovurdoq qovurdi.
- Qodir qagʻillagan qargʻaga qaradi.





Maymun va duradgor

(Ertak)

Bir maymun duradgorning yog‘och ustida o‘tirib pona bilan uni yorayotganini ko‘rib qoldi. Duradgor bir ponani qoqib, ikkinchisini chiqarib olar edi. Uni boshqa yerga qoqib, yog‘ochni yorib borar edi.

Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni ko‘rgan maymun duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo‘ldi. U yog‘ochning ustiga minib oldi. Maymunning dumi yog‘ochning

yorig'iga tushib turgan edi. U ponani sug'ura boshladi. Maymun ponani sug'urgan ham ediki, yog'och dumini qisib qoldi. Maymun hushidan ketdi.

Savollar:

1. Duradgor nima ish qilayotgan edi?
2. Maymun nima qildi?
3. O'ziga aloqador bo'lmagan ishga aralashishning oqibati nima bilan tugaydi?

Maqol:

● Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.


Topishmoqlar:

- O'sar ko'kka bo'y cho'zib, Qulochday bargin yozib. Xipcha bel, zarrin soqol, Tishlari zich, dur misol.



- Oqmas suvda o'zingni ko'r.





Rostgo'y bola

(Ertak)

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Podshohning farzandi yo'q ekan. Shuning uchun u doimo xomush bo'lib yurar ekan. Podshoh vazirning maslahati bilan bolalarga gul urug'i tarqattiribdi. Kimning guli chiroyli bo'lsa, o'shani podshoh farzand qilib olmoqchiligini aytishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tibdi. Podshoh gul o'stirganlarni ko'rish niyatida shahar aylanibdi. Ko'p bolalar va ular o'stirgan gullarni ko'rib o'taveribdi. Bir ko'chaga yetganda podshohning ko'zi gulsiz tuvak ushlab, yig'lab o'tirgan bolakayga tushibdi. Bolakayning oldiga borib:

— Sen o'stirgan gul qani? — deya so'rabdi.

Shunda bolakay gul urug'i o'sib chiqmaganligini aytibdi.

Podshoh:

— Men farzandlikka olish niyatida axtargan bola mana shu bo'ladi, — debdi. Chunki podshoh gul urug'larini qaynattirgan ekan.

Savollar:

1. Podshoh o'ziga farzand tanlash uchun qanday yo'l tutdi?
2. Bola gulni nega o'stira olmabdi?
3. Podshoh nima uchun bolakayni o'ziga farzandlikka tanlabdi?



Maqollar

- Sog' tanda — sog'lom aql.
- Ozodlik — obodlik.
- Yurtim, deb yuzga kirdim.
- Birliksiz kuch bo'lmas.
- Bilimdan ortiq boylik yo'q.
- Bilimliga dunyo yorug',
Bilimsizga — qorong'i.
- Sog'liging — boyliging.
- Gap bilan shoshma,
Ish bilan shosh.
- Dili pokning — ishi pok.
- Til — aql bezagi.
- Yaxshi so'z boldan shirin.
- Aql — Hasan, odob — Husan.

Savol:

Siz yana qanday maqollarni bilasiz?





Topishmoqlar



Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.

Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq.



Pishsa bemaza,
Pishmasa maza.

Dum-dumaloq bo'yi bor,
Palovda obro'yi bor.



Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.

To'ni silliq, tuki yo'q,
Ichi qizil, ko'ki yo'q.





Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.

Ajib ishlar bo'ladi,
Uxlaganlar ko'radi.



Chopsa, chopilmas,
Bo'lsa, bo'linmas.
Kessa, kesilmas,
Ko'msa, ko'milmas.

Har kun yerga tushadi
Ikkita sara parda.
Ikki rangda ikkovi —
Oq parda, qora parda.

Tushganda qora parda,
Oq parda bekinadi.

Oqi tushsa agarda,
Qorasi chekinadi.





Laylak keldi — yoz bo‘ldi

(Qo‘shiq)

Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi,
O‘tirdi yig‘lamoqqa.

Men bobo hoji edim,
Qizlarga boshchi edim.
Qizlar o‘yin tushganda,
Men nog‘orachi edim.

Laylak keldi, ilon, qoch,
Bola-chaqang olib qoch.
Yangi to‘ning kiyib qoch,
Eski to‘ning tashlab qoch.

◆ **She‘rni yod oling.**



Latifalar

Uyqum qochib ketdi

Afandi yarim kechasi uygʻonib ketib, keyin hech uxlolmabdi. U koʻchaga chiqib, sayr qilib yurgan ekan, koʻcha qorovuli uchrabdi.

— Tunda nima axtarib yuribsən? — deb soʻrabdi qorovul.

— Uyqum qochib ketdi, uni qidirib yuribman, — deb javob qilibdi Afandi.



Tuya eshikdan sigʻmaydi

Afandi yosh bola edi. Koʻcha eshigi oldida non yeb oʻtirgan edi. Bir kishi kelib uni aldamoqchi boʻldi:

— Tuyani yaxshi koʻrasanmi?

— Ha.

— Kel, noningni tuya qilib beray.

Afandi u kishiga qarab dedi:

— Tuya eshigimizdan sigʻmaydi.

Qoʻyavering, oʻzim boʻtaloq qilib olaman.




Savol:


Hozirjavoblik qanday xislat?


BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH


Boshqotirma


Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz, quyida berilgan maqolni bilib olasiz.


1 


2 


3 


4 

5 

6 

7 

8 

9 

... — baxt kaliti.

Rebus

Rebusni yechsangiz, oymoma haqidagi topishmoqni bilib olasiz:



p +



,



o

~~qa~~

+ ga

t +



.

Savol va topshiriqlar:

1. Yaxshilik qilish deganda nimalarni tushunasiz?
2. Bilmagan ishga aralashishning oqibati qanday bo'ladi?
3. O'qigan ertaklaringizdagi qahramonlarni aytib bering.
4. Siz qanday maqollarni bilasiz?



ODOB — INSONGA HUSN

Oftob va odob

Po'lat Mo'min

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi?
Oftob berar nur,
Odob-chi — huzur.



Lolalar uchun
Oftob yaxshidir.
Bolalar uchun
Odob yaxshidir.



Oftob bo'lmasa,
Qorong'u tushar.
Odob bo'lmasa,
G'am-qayg'u tushar.

Oftob ko'rinar
Tog'-tepalikda.
Odob ko'rinar
Salom-alikda.



◆ **She'ni yod oling.**



Odob

(Rivoyat)

Bir kishi: «Odobni kimdan oʻrganingiz?» — deb Luqmoni hakimdan soʻrabdi. «Odobni odobsizdan oʻrgandim», — deb javob beribdi Luqmoni hakim. «Odobni odobsizdan qanday oʻrganingiz?» — deb soʻrabdi u kishi. Luqmoni hakim javob beribdi: «Doim odamlarning qilgan ishlariga, soʻzlagan soʻzlariga eʼtibor berib yurdim. Kimdan bir yomon soʻz eshitsam, shu soʻzni hech bir soʻzlamadim. Kimda-kim bir yomon ish qilsa, shu ishni hech bir qilmadim».

Savollar:

1. Luqmoni hakim odobni kimdan oʻrgangan ekan?
2. U kishi nima deb javob qildi?
3. Odobli boʻlish uchun nimalar qilish kerak?





Kapalak

Mirmuhsin

Chiroyli kapalak uchib kelib gulga qo'ndi. Iqbol sekin borib uning qanotlaridan mahkam tutib oldi.

— Qo'yib yubor, Iqbolxon, qanotlarimni sindirma, — dedi yig'lab, tipirchilab chiroyli kapalak.

— Men seni o'ynayman, rosa zerikib o'tirgan edim, — dedi Iqbol.

— Meni qo'yib yuborsang, har kuni kelib seni o'ynataman. Hech zerikmaysan, — dedi kapalak.

— Meni zeriktirmaysanmi? — deb so‘radi Iqbol.

— Ha. Kel, o‘rtoq bo‘laylik, — dedi kapalak.

Iqbol chiroyli kapalakni qo‘yib yubordi. Kapalak pirillab uchdi.

— Kapalak, kapalak, qanotlaring chiroyli, ketma, birga o‘ynaylik, — dedi Iqbol yana.

Iqbol bilan kapalak o‘rtoq bo‘lishdi.

Savollar:

1. Iqbol nega kapalakni tutib oldi?
2. Kapalak bilan Iqbol qanday qilib do‘st bo‘ldilar?
3. Siz yana qanday hasharotlarni bilasiz?

Topishmoq:

- To‘rt o‘rtoq bor: zo‘r ishi — Odam, olam tashvishi. Har biri xursand etar, Izma-iz kelib ketar.





Maslahat

Iskandar Rahmon

Jiringlasa telefon,
Asta olib go'shagin:
— Labbay! Salom! — degin-u, —
Kimsiz? — deya so'ragin.

Tanish bo'lsa so'zlashgin,
Yo'qsa gapni kalta qil!
So'rasa sir, ma'lumot,
Sira-sira aytmagil!

Ota-onang nomidan
Qilsa kimdir qo'ng'iroq,
Sen bu gapga ishonma,
Hushyor bo'l, solma quloq!

Savollar:

1. Telefonda so'zlashish odobini o'rgandingizmi?
2. Ota-onangiz nomidan qo'ng'iroq qilishsa, nima qilasiz?

Maqol:

- O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.

Topishmoq:



- Loy va jundan tanasi,
Hovlimizda xonasi.
Yemishi olov, xamir,
Beradi shirmoy, patir.

Tez aytish:



- To'lqin topishmoqni to'g'ri topdi.



Taqsim

Abdulla Avloniy

Bir kuni ikki bola ko'chada o'ynab yurgan zamonda bitta yong'oq topib oldilar. Biri: «Men olaman, avval men ko'rdim», — dedi. Ikkinchisi: «Yo'q, birodar, men olaman, yerdan men oldim», — dedi.

Ikkalasi janjallashib qoldi. Bir yigit kelib: «Ey chirog'larim, shoshmang, talashmang. Men sizlarga yaxshilab taqsimlab beraman», — dedi.

U yong‘oqni bolalar qo‘lidan olib, ikkiga ajratdi. Bir palla po‘chog‘ini birinchi bolaga, ikkinchi palla po‘chog‘ini ikkinchi bolaga berdi. So‘ng: «Mana, qolgani taqsim qilgan kishiga», — dedi.

Yong‘oqning mag‘zini og‘ziga so‘lib, jo‘nab ketdi. Bolalar esa yong‘oq po‘chog‘ini ushlab, ajablanib qoldilar.

Savollar:

- 1.** Bolalar nimani talashib qoldilar?
- 2.** Yigit yong‘oqni qanday taqsimladi?
- 3.** Ozga qanoat qilmasa nima bo‘ladi?

Hikmatli gap:

- Ozga qanoat qilmagan ko‘pdan qolur.



Xotira va qadr

Dilshod Rajab

Bu dunyodan o'tganlar
Nomini yod etamiz.
Yaxshilarni qadrlab,
Dilini shod etamiz.

Chin inson xotirasi
Yashnab turar bog' bo'lib.
Eslab yurar odamlar
Doim ko'ngli chog' bo'lib.

Savollar:

1. Xotira va qadrlash kuni qachon nishonlanadi?
2. Biz kimlarni qadrlashimiz kerak?

Maqol:

- Qadrlasang qadring oshar,
Qadrsizdan hamma qochar.

Tez aytish:

- Kitoblar kitobxonlarga kerak,
Kitobxonlarga kitoblar kerak.





Chiroyli salom

Safar Barnoyev

Nigina uyqudan kech uyg'ondi. Oila a'zolari nonushta qilib bo'lgan edi.

Xurshid buva nevarasini kutmay, ko'chaga yo'l oldi. Nigina buvasiga dedi:

— Buvajon, sizga chiroyli salom bermasam ham ketaverasizmi?

— Ha, — dedi buvasi. — Salom uyqudan barvaqt turib, yuz-qo'lni yuvib beriladi.

— Hozir, buvajon.

Nigina apil-tapil yuz-qo‘lini yuvdi. Keyin toshoyna oldiga borib, sochini taradi. So‘ng buvasi tomon qayrilib, ta‘zim qildi:

— Assalomu alaykum, buvajon.

Buva:

— Vaalaykum assalom, — deb uning peshanasidan o‘pdi.

Buva ko‘chaga yo‘l oldi. Nigina chehrasi ochilib buvasini kuzatdi.

Savollar:

1. Xurshid buva Niginaga nima deb tanbeh berdi?
2. Hikoya nima haqida ekan?
3. Niginaga qanday baho berasiz?

Hikmatli gap:

- Eshik ochiq bo‘lsa ham so‘rab kir.

Maqol:

- Sanamay sakkiz dema.





BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH



Boshqotirma

Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz, hikmatli gapning davomi kelib chiqadi:



Odobli bola ...

Rebus

Rebusni yechsangiz, hikmatli gap kelib chiqadi:



Savol va topshiriqlar:

1. Odob haqida siz nimalarni o'rgandizingiz?
2. Telefonda qanday so'zlashish kerak?
3. «Taqsim» hikoyasidan nimalarni bilib oldingiz?
4. Xotira va qadrlash kuni qanday kun ekan?
5. Odobli bolaga xos sifatlarni sanab bering.



MEHNATNING TAGI — ROHAT



Aqlli bogʻbon

(Ertak)

Bir bogʻbonning dangasa va ish-yoqmas uch oʻgʻli bor edi. Bogʻbon bir kuni kasal boʻlib qoldi. U oʻgʻillarini yoniga chaqirib, shunday vasiyat qildi: «Oʻgʻillarim, umrim oxirlab qolganga oʻxshaydi. Bogʻning ichiga bir koʻza oltin koʻmib qoʻyganman. Oʻzingiz kovlab topib, boʻlishib olasizlar».

Oradan bir necha kun oʻtib, bogʻbon dunyodan koʻz yumibdi.

O'g'illari oltin axtarib bog'ni shunday qazibdilarki, tuproqlari kul bo'lib ketibdi. Lekin tokning ildizidan boshqa hech narsa topa olmabdilar. Ammo shu yili tok shunday uzum qilibdiki, uning pulidan bir necha ko'za oltin-ga to'ladigan bo'libdi. Shundan so'ng bu yalqovlar bildilarki, oltin yerda emas, mehnatda ekan.

Savollar:

1. Bog'bon o'g'illariga nima deb vasiyat qildi?
2. Oltin qayerda ekan?

Hikmatli gap:

- Hamma yomonliklarning boshi — dangasalik va qo'rqqoqlik.

Tez aytish:

- Salima Salimdan savol so'radimi, Salim Salimadan savol so'radimi?

Maqol:

- Aql — boylik kaliti.





Soqi bilan onasi

Abdulla Avloniy

Bir kuni Soqi maktabdan kelib, onasidan ovqat so‘radi. Onasi oldiga bir kosa ovqat keltirib qo‘ydi. Soqi sho‘rvadan bir qoshiq og‘ziga olib: «Ona, men bu mazasiz sho‘rvani ichmayman», — dedi.

Onasi: «Ichmasang qo‘y, o‘g‘lim, boshqa ovqat pishirib beraman», — deb olib qo‘ydi. Soqiga kechgacha xazon tashittirdi. Soqi horib-charchab, qorni ochdi. Onasi yana shu sho‘rvani isitib keldi. Soqi sho‘rvadan biroz ichib ko‘rib: «Mana, onajon, bu qanday totli sho‘rva

bo'libdi. Umrimda bunday shirin sho'rva ichganim yo'q», — dedi. Onasi kulib: «Ey o'g'lim, bu boyagi o'zing ichmagan sho'rva. Hozir sen harakat qilding, ishlading, qorning ochdi, ishtahang ochildi. Sho'rva ham shirin tatidi», — deb javob qaytardi.

Savollar:

1. Soqi maktabdan kelib onasiga nima dedi?
2. Onasi nima qildi?
3. Soqiga ovqat nega shirin tuyildi?

Maqol:

- Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

Topishmoqlar:

- Palak ostida
Yotar talay tosh.
Uni pishirsang,
Bo'lar shirin osh.



- Oq samanim osmonda chopar,
Yag'rinlari quyoshni yopar.





Yer nima der?

Po'lat Mo'min

Bilasizmi, ona Yer
Hammamizga nima der?
Eng birinchi bizga u
Deydi: Menga ko'ngil ber.
U bizlarga uqtirar:
— Mehnat qilgan halol yer.
— Hosil beray, — deb aytar, —
Peshanadan to'ksang ter.
Bizga yana so'zlaydi:
— Yaxshilarga gullar ter.
Eng oxirgi so'zi soz:
— Bor ekanman, yashayver.

Savol:

Yer insonlarga nima der ekan?

Hikmatli gap:

- Yer boylikning onasi bo'lsa, otasi — mehnat.

Tez aytish:



- Qo'zichog'im qo'ng'ir, oq,
Qo'ng'iroqli qo'zichoq.

Tugma

Shuhrat

Erkinjonning kiyimidan tugmasi tushib qolibdi.

— Iye, o‘g‘lim, tugmachang tushib qolibdi-ku, — dedi buvasi.

Erkinjon beparvo turgan edi, buvasi:

— Hammasi shu kichkina narsadan boshlanadi. Bugun tugmachaga befarq qarasang, ertaga poyabzaling yirtilsa ham yuraverasan. Bu yaxshimas. Qani, darrov qadab ol! — dedi.

Erkinjonning ayasi ip o‘tkazayotgan edi. Buvasi norozi bo‘lib dedi:

— O‘ziga bering, o‘zi o‘tkazsin, tugmaniyam o‘zi qadasin!

Erkinjon tugmani zo‘rg‘a qadadi. Bir marta barmog‘iga igna kirib ketdi.

— Odam bolasi har narsaga qodir, faqat qunt kerak, — dedi buva.

Savol:

Buvasi Erkinjonga qanday saboq berdi?





Maqtanchoq g'oz

Abdulla Avloniy

Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga-o'zi maqtanib: «Olamda menday hunarmand qush yo'qdir. Yerda yuraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor», — debdi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: «Birodar, sen buncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Chunki baliqdek suza olmaysan, kiyikday yugura olmaysan, lochindek ucha olmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing ma'qul», — debdi.

Savollar:

1. G'oz nima deb maqtandi?
2. Qurbaqa unga nima dedi?
3. Sizning fikringiz qanday?



Maqol:



● Chiranma, g'oz, hunaring oz.



Ona yer

Ibrohim Rahim

Maktabdan o‘z uyiga qaytishda Anvarjon dush kelgan jami narsalarni sinchiklab kuzatib keldi. So‘ng onasiga murojaat qildi:

- Onajon!
- Labbay, qo‘zichog‘im!
- Yer shuncha narsani bitta o‘zi ko‘taradimi?

— Bitta o‘zi ko‘taradi.

— Uylar... odamlar... mashinalar...
Hammasini yer ko‘tarib turibdi. Beli
og‘rimaydimi?

— Og‘rimaydi.

— Charchamaydimi?

— Charchamaydi. Bundan tashqari
yer meva-cheva beradi. Yeydigan
nonimiz ham mana shu yerda bitadi.
Shuning uchun biz uni ona yer
deymiz.

Anvarjon onasining shu gapidan
keyin yerga yanada mehri ortgan-
day, unga mehribon boqadigan, yer-
ni aziz deb biladigan, jahli chiqqan-
da yerni depsimaydigan bo‘ldi.

Savollar:

1. Anvarjon onasiga nima deb savol berdi?
2. Onasi Anvarga qanday javob qaytardi?

Maqol:



- Halol mehnat — yaxshi odat,
Berar senga saodat.



Yurak

(Rivoyat)

Qo‘l kerilib, ikki tomonga tarvaqaylab:

— Men zo‘rman, chunki hamma narsaga cho‘zilsam yetaman, — debdi maqtanib.

Oyoq gerdayib:

— Men sendan ko‘ra zo‘rman, qayerga xohlasam bora olaman, — deb yer tepinibdi.

Bosh o‘zini mag‘rur tutib:

— Hammangdan zo‘rroq men bo‘laman, chunki men o‘ylasamgina ishlaring bitadi, — debdi.

Betanim ishlab holdan toygan yurak birpas dam olmoqchi bo‘lib to‘xtabdi. Shu payt qo‘l bo‘shashib ikki tomonga shalpayib tushibdi. Oyoqning biri ikkinchisiga chirmashib yurolmay qolibdi. Shilq etib bosh o‘zini yelkaga tashlabdi.

Yurak: «Yo‘q, bir zum to‘xtashga haqqim yo‘q ekan», — debdi-da, tag‘in ishlay boshlabdi. Keyin qo‘l, oyoq va boshga qarab:

— Meni ehtiyot qilishlaring kerakka o‘xshaydi. Men to‘xtasam, sizlarga qiyin bo‘lar ekan, — debdi kamtarlik bilan.

Maqol:

- Bilmaganni bildim dema,
Qilmaganni qildim dema.

Savollar:


1. Qo‘l, oyoq, bosh nimalar dedi?
2. Yurak nima qildi?
3. Yurak qanday vazifani bajarar ekan?

BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma



Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz,
bo‘limning nomi to‘liq kelib chiqadi.

Mehnatning tagi – ...



Rebus

Rebusni to'g'ri yechsangiz, «Aqlli bog'bon» ertagidagi hikmatli gap ke-lib chiqadi.



Savol va topshiriqlar:

1. «Bog' ichiga oltin ko'mib qo'y-ganman», — deganda bog'bon nimani nazarda tutgan?
2. «Yer nima der?» she'rini yoddan ayting.
3. Erkinjon nega tanbeh eshitdi?
4. «Maqtanchoq g'oz» matnidan qanday xulosa chiqardingiz?
5. Ona yer bizlarga nimalar beradi?



MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

O‘zbek elim


Odil Abdurahmon

O‘zbek elim,
Bek elim,
Senga nasib
Erk, elim.

Peshanangga
Nur tegib,
Kamol topgin
Baxt emib.

O‘zingning o‘z
Tug‘ing bor,
Mustaqillik
Cho‘g‘ing bor.

Bobom Temur
Suygan xalq,
Dunyo uzra
Yayrab balq.



◆ **She’rni ifodali o‘qing.**



Musavvir

Erkin Malik

Bir musavvir bor ekan. U rasm chizish uchun dala-yu dashtlarga chiqarkan. Shunda: «Meni chizing, meni chizing», — deb osmonda qushlar chuldirar, uloqchalar, toychoqlar atrofida dikir-dikir sakrashar ekan. Bu gal ham shunday bo‘libdi. Musavvir ularga jilmayib qo‘yibdi-da, nimalarnidir chiza boshlabdi. Uni kuzatib turgan jonivorlar:

— Nimaga bug‘doy rasmini chizyapsiz? — deb savolga tutishibdi.

— Bu dunyoda nonsiz yashab bo‘lmaydi. Non — taomlarning podsho-

si. Non bug'doydan tayyorlanadi, —
javob beribdi musavvir.

— Nega paxta rasmini chizdingiz?

— Paxtasiz ham yashab bo'lmaydi.
U kiyim-kechak degani.

— Nimaga humo qushini chizyap-
siz? Bulbul yoki kabutarni emas?

— Humo — baxt qushi. Humosi
bor yurt tinch va badavlat bo'ladi.

— Quyosh-chi?

— Yurtimiz — quyoshli yurt. Uni bir
kun ko'rmasa, hamma sog'inadi.

— Daryo rasmini nega chizdingiz?

— Vatanimizda ikkita katta daryo
bor. Biri Sirdaryo, ikkinchisi Amu-
daryo. Bu ikki daryo butun O'zbe-
kistonni suv bilan ta'minlaydi.

— Tushundik. Oy va yulduzlar-chi?

— Hayot kun va tundan iborat.
Kunduzi Quyosh yoritisa, kechasi Oy
va yulduzlar butun olamni yoritadi.

Musavvir oddiy narsalardan ham
chiroyli rasm yaratibdi. U O'zbekis-
ton Respublikasining Davlat gerbi
ekan.



Quyoshdan erta turib

Yo'ldosh Sulaymon

Toza havo —
Tanga davo.
Kutaman tongni,
Tinglab dildan
Poytaxtimdan
Yangragan bongni.

Yotsa Omon,
Uyg'otaman:
— Tur, uka, qani,
Qulochni yoz,
Bajarsak soz
Badantarbiyani.

Bizdan oyim
Xursand doim,


Soʻzlar:
— Qoʻzilar,
Hamma sogʻliq
Shunga bogʻliq,
Boʻy ham choʻzilar!

Rivoyat

Navbatdagi yurish oldidan Qora-bogʻda chodir qurib turib qoldik. Harbiy mashqlar paytida ochiq havoda tunadik. Safar oldidan chodirga qaytib, ajib manzaraning guvohi boʻldim. Biz yoʻgʻimizda chodir tuynugidan ikkita kaptar tushib, oʻrindiqqaga in quribdi. Biri tuxum bosib yotar edi. Bu beozor jonivorlarga zarar yetkazmaslik uchun chodirni oʻzga qildik. Safarga joʻnash oldidan toʻrt navkarni qoldirdik. Ularga tayin etdimkim:

— Qushlar tuxum ochib, palaponlari uchirma boʻlguncha shu yerda boʻlursiz. Soʻngra chodirni yigʻib, ortimizdan yetib borursizlar.

(Amir Temur haqidagi rivoyatlardan)



Chinor va maysalar

Olloyor Begaliyev

Chinorning tuni bilan uyqusi buzilib turdi. Ba'zan oh urar, ba'zan esa yosh boladay qiqirlab kulardi. Chinor alahlaganda maysalar cho'chib ketishardi.

Tong otdi. Quyosh nurlari bilan Chinorni quchoqlab oldi.

— Omonmisiz, go'dagim?

— Go‘dakmish, — Chinorni mazax qildi maysalar.

— Sizlar ham go‘daksizlar, — dedi Quyosh bobo nurlari bilan maysalarni chimchilab. Chinor tuni bilan bezovtalanib chiqqanidan nolidi:

— Nega bunday bo‘ldi, hayronman? Ilgari tinch uxlardim.

— Axir, bundan ming yil ilgari xuddi shu kuni urug‘ingni yorib, yer yuziga chiqqanding-ku! — dedi Quyosh bobo.

— Buni qarang-a, ming yoshga to‘ldimmi hali? — hayratlandi Chinor.

— Ming yosh? Bu nima degani? — so‘rashdi maysalar.

— Ming yosh degani o‘rtancha o‘g‘lim Zaminbekning mening atrofimda ming marta aylanib chiqishi, — dedi Quyosh bobo.

— Zaminbek kim? Nega u sizning atrofingizda aylanadi?

— Hoy Chinor, o‘zing tushuntirib ber maysalarga, — deb yo‘lida davom etdi Quyosh bobo.

Ulugʻbek bobom

Poʻlat Moʻmin

Osmonlarda nur koʻzlaringiz,
Charaqlaydi yulduzlaringiz.
Amir Temur ruhi boʻlib yor,
Yashnamoqda bu ozod diyor.

Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulugʻbek bobom.
Fan koʻksida yashaysiz hamon,
Ardoqlaydi jahon-u zamon.

Oʻchmagaydir hech izlaringiz,
Biz — yerdagi yulduzlaringiz.



Boychechak

Muhtarama

— Boy chechag-u oy chechak,
Muncha xushchiroy chechak.
Senga osmon mehribon,
Keng qirlar saroy, chechak.

Kulgilaring nur sochar,
Atirlaring moy, chechak.
Men bilan yur, uyimiz —
Senga issiq joy, chechak.

— Bilib qo‘ygin, emasman
Men arzandaoy chechak.
Ulash barcha do‘stingga,
Chunki nomim — boychechak.





Otam o'giti, onam oq suti

Po'lat Mo'min

O'stirdi sog'lom,
Baxsh etdi orom,
O'rgatdi salom
Otam o'giti,
Onam oq suti.

Chiqdi til – so'zim,
Nur ko'rdi ko'zim,
Tanitdi o'zim
Otam o'giti,
Onam oq suti.



Qushcha

Abdulla Oripov

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar barchasi.
Bilsang, men ham chaman o'lkamning
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.



Buloq va daraxt

(Ertak)

Zamira
Ibrohimova

Qadim zamonlarda bir daraxt va buloq boʻlgan ekan. Ular yonma-yon yashar ekanlar. Buloq endigina koʻz ochgan, nihol esa nozikkina, salgina shamoldan chayqalib ketarkan...

Oradan oylar, yillar oʻtibdi. Buloq suvi qirgʻoqdan toshib, irmoq hosil qilibdi. Nihol ham sarvqomat daraxtga aylanibdi. Yoʻlovchilar daraxtning soyasida dam olib, buloqning tiniq suvidan ichar ekanlar. Ketayotganlarida esa negadir faqat daraxtni maqtashar ekan:

— Zap qomatdor daraxt boʻpti-da!

Daraxtning dimog'i ko'tarilib, hatto buloqni mensimay qo'yibdi.

— Men soya solmaganimda, yoningda kim ham to'xtardi? Na soyang bor, na husning! — manmansirabdi u.

Daraxtning gapidan buloqning dili og'ribdi. Bu hol yana takrorlangach, buloq suvi sekingina o'z oqimini o'zgartiribdi. Shundan so'ng daraxt ildizlariga bir tomchi ham suv kelmay qo'yibdi. Daraxt esa buni sezmay, ko'kka bo'y cho'zganicha mag'rur turaveribdi. Biroq ko'p o'tmay a'zoyi badani bo'g'ilib borayotganini sezibdi. Shundagina pastga egilib, buloq suvi kelmayotganini ko'ribdi.

— Nahotki buloq menga quvvat berib turgan bo'lsa?! — o'ylanibdi u.

Daraxtning ahvoli tobora yomonlashibdi, unga husn berib turgan yaproqlari qovjirab to'kila boshlabdi. U buloqning dilini nohaq og'ritganligini, tiriklikning kuchi ahillikda ekanini tushunib yetibdi.




Dil so'zlari

Habib Rahmat

Oq kaptarim chiroyli,
Ko'k kaptarim chiroyli.
Tinchlik qushi deydi
Dil gaplarim chiroyli.

Ko'k toqida charx ura,
Bir dasta gulga o'xshar.
Quyosh boshida kulsa,
Bir hovuch nurga o'xshar.

Parvoz aylang elma-el,
Qanotingiz tolmasin.
Yer yuziga: «Tinchlik», — deng,
Eshitmagan qolmasin.



Yo‘qolgan ko‘zoynak

Kavsar Turdiyeva

Gulshoda uch yoshdan oshdi. Uydagi hamma narsaga qiziqib quloq soladi. Mana, hozir ham buvisi ko‘zoynagini topa olmayapti.

– Buvingga ko‘zoynagini qidirishib yubor! – dedi oyisi va o‘zi ham qidirishga tushdi.

Dadasi esa kim ko‘zoynakni topsa, shokolad sovg‘a qilishini aytdi. Gulshoda stoldagi gazetani olib qarasa – ko‘zoynak... U yugurganicha dadasining yoniga bordi.

– Men topdim! Topdim!

– Qoyil! – dedi oyisi. Buvisi ham rosa xursand bo‘ldi. Dadasi esa:

– Bu topag‘on qizimga, – deb shokolad uzatdi.

Hamma o‘z ishi bilan band bo‘ldi. Oyisi ovqat qildi. Buvisi ko‘rpa qavidi. Dadasi hovlida yer chopdi. Tushlikda birgalashib ovqatlanishdi. Keyin hamma turib yana o‘z ishini davom ettirishga kirishdi.

– Yana ko‘zoyntagim yo‘qolib qolibdi, – birdan buvisining xafa ovozi eshitildi.

– Qayerga qo‘ygan edingiz? – so‘radi oyisi kelib.


Gulshoda pardaning ortidan mo‘ralab:

– Mana, buvimning ko‘zoyntagini topib oldim. Endi shokolad berasizmi? – dedi.

Lekin bu safar oyisi unga xo‘mrayib qaradi va qo‘lidagi ko‘zoynakni olib qo‘ydi.

Hikmatli gap:

● To‘g‘ri so‘zlash insonni yaxshilikka eltadi.



Hakka va uning bolalari

(Ertak)

Bir kuni hakka bolalarini dalaga olib boribdi-da:

— Endi sizlar katta bo‘lib qoldingiz, ovqatingizni o‘zingiz topib ye-yishingiz kerak, — debdi.

Ona hakkaning bu gaplari bolalariga yoqmabdi.

— Odamlar bizni tutib olsa nima qilamiz? — deyishibdi bolalari.

— Bundan qo‘rqmasalaring ham bo‘ladi, — debdi ona hakka. — Odamlar sizni tutish uchun oldin tuzoq qo‘yishadi. Tuzoqqa don sepishadi. Sizlar o‘sha tekin donga uchmasalaringiz, odamlar sizni tuta olishmaydi.

— Shundayku-ya, — deyishibdi hakka bolalari, — agar odam bizni tosh bilan urib tushirsa-chi?


— U tosh olish uchun yerga engashadi-ku! — debdi ona hakka.

— Qo‘lida toshi bo‘lsa-chi? — yana e‘tiroz bildirishibdi bolalari.

— O‘h-ho‘, sizning aqlingiz shunchaga yetar ekan, demak, dushman-dan saqlanishning ham uddasidan chiqa olasizlar, — debdi-da, ona hakka bolalarini dalada qoldirib, o‘zi uchib ketibdi.

Tez aytish:

- Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq.



Olma

To'liqin Ilhomov

Bobo nevarasini tog' etagidagi dam olish uyiga olib bordi. Ular aylanib yurib shig'il hosilli, qirmizi mevalari ko'zni o'ynatadigan olma daraxtiga ko'zlari tushdi. Bobo ehtiyotkorlik bilan ikki dona olmani uzib, bittasini nevarasiga uzatdi.

— Shirin ekan... Bobo, bu olmani kim o'tqazgan? — dedi nevara.

— Urug'dan chiqqan bo'lsa kerak, — dedi o'ychanlik bilan bobo.

Nevara kutilmaganda olma shoxlariga tikilib qoldi.

— Xalta olib kelsak bo'larkan.

Bobo hushyor tortdi.

— Bo'tam, odamni uyaltirdingiz-ku.

— Nega bunday deyapsiz? — hayron bo'ldi nevara.

— Qani, ayting-chi, bu olmani siz o'tqazganmisiz?

— Yo'q.

— Saratonda chanqaganda yarim chelak bo'lsa ham suv keltirganmisiz?

— Yo'q.

— Ana, ko'rdingizmi, daraxtga yordamingiz tegmapti. U qor, yomg'ir suvlariga qanoat qilgan. Izg'irinlarga chidagan. Endi hosilga kirib, uni barcha mehmonlarga ulashayapti.

Nevara shundaymi deganday olma daraxtiga qaradi. Daraxt boboning gaplarini tasdiqlaganday shoxlarini qimirlatib qo'ydi.

Hikmatli gap:

● Halol ish — lazzatli yemish.



Arpa-bug'doy osh bo'lur

Abdusodiq Irisov

Uch kishi safarga chiqishibdi. Ulardan ikkitasi belbog'iga oltin-kumushlarini, qimmatbaho narsalarini tugib jo'nabdi. Uchinchisi bir xalta non-u tolqon, bir ko'za suv ko'tarib yo'lga chiqibdi. Buning xaltasini ko'rib, haligi ikki kishi rosa kulibdi, uni mazax qilibdi.

— Obbo tentak-ey, oltin-kumush olmay, tolqon ko'tarib yuribsanmi-a, og'irlik qiladi-ku, — deyishibdi ular.

— Mayli, — debdi xalta ko'targan kishi va yo'lga ravona bo'lishibdi.

Nima bo'libdi-yu, musofirlar cho'l-u biyobonga borib qolishibdi. U yerda na odam, na bir giyoh bor ekan. Oltin-u kumush egalarining qorni ochib, nima qilishini bilmay qolibdi. Endi ikkovi ham tolqoni bor kishiga yalinishga tushishibdi. Ular o'z boyliklaridan berib, yo non, yo tolqonidan sotishini so'rashibdi. Tolqoni bor kishi oltin-u kumushlarni qo'lga olib, og'ziga solib ko'ribdi, keyin aftini burishtirib:

— Buni yeb bo'lmaydi-ku, — debdi va egalariga qaytarib beribdi.

— Mayli, kelinglar, — debdi u hamrohlariga rahmi kelib, — ovqatni baham ko'ramiz.

Oltin-u kumush egalari o'z qilmishlaridan xijolat bo'lishibdi. Shunga qaramay darrov o'tirib, non-u tolqondan yeyishibdi. Shunda ikkovi ham:

— Arpa-bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan, — deyishibdi.



Oltin quyosh

Miraziz A'zam

Quyosh chiqdi —
Oltin quyosh,
Oltin quyosh ufqda!
Oltin quyosh chiqqanini,
Kel, aytamiz qo'shiqda!
Turing, qani, o'ringizdan,
Turing, oppoq bolalar.
Oltin quyosh chiqqanini
Qutlamoqda dalalar.
Oltin quyosh
Zarlarini
Qir-adirga sepmoqda.
O't-o'lan-u
Turfa gullar
Quyosh nurin o'pmoqda.

Aql va boylik

(Ertak)

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kuni chol: «Men qarib qoldim, orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'zini ko'rsatsin. Shu merosxo'r bo'ladi», — debdi.

Katta o'g'il zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini, ikkinchi o'g'il zarbof choponini kiyib ko'rsatibdi. Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini beliga bog'lab ko'rsatibdi. Chol kenja o'g'liga qarab:

— Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? — debdi.

— Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi kenja o'g'il.

Chol bor-yo'g'ini kenja o'g'liga meros qilib qoldiribdi va oila boshlig'i etib tayinlabdi.



Men oromgoh bolasi

Zaynab Begim

Men oromgoh bolasi –
Oromimni olaman.
Quvonch, sabot, g'ayratni
Yuraginga solaman.

Oy bilan, osmon bilan
Sirlashib kezigim kelar.
Bolalik – donolikdir,
Deb gulga yozgim kelar.

O'saman polvon bo'lib,
Quvnatib yurt ko'zini.
Qoqilmay, yiqilmasdan
Tik tutaman o'zimni.

Topishmoqlar

Tunda ko'rib, cho'g' deysan,
Tongda ko'rib, yo'q deysan.



Gul emas-u, bog'langan
qilib dasta,
Yerni gulga aylantirar birpasda.

O'xshar qovun-tarvuzga,
Sip-silliq kiygan to'ni.
Ichi olov, zar rangda,
Pishirib yeysan uni.



Toyim bor, kishnamaydi,
Yozda hech ishlamaydi.

Kichkina mitti,
Qo'limga olsam,
Qovurg'asi sinib ketdi.



Qorday oppoq,
Yungday yumshoq.

Tez aytish

- Qo‘sh qo‘lqop,
Qo‘shovi ham
Bo‘sh qo‘lqop.
- Olim oldidagi oltita olmani oldi.
- Oydin oydinda oyisidan oldin bordi.
- Hashar, hashardan shahar yashnar.
- Dildora — Dinoraning dugonasi,
Dinora — Dilnozaning dugonasi.
- Qodir qaldirg‘ochning qayrilgan
qanotiga qaradi.
- Dilshodning dili shod,
Dili shodning o‘zi shod.
- Saidning sa‘vasi
Sabzining sarasini,
Mahmudning maynasi
Mayizning maydasini yeydi.

MUNDARIJA

O‘zbekiston — mening Vatanim

Vatan — bu... (<i>Po‘lat Mo‘min</i>)	5
Buyuklar vatani (<i>Qutlibeka Rahimboyeva</i>)	7
Yurt qalqonlari (<i>Dilshod Rajab</i>)	8
Ota rozi — Vatan rozi (<i>Eson Rahimov</i>)	9
Suv — shifo (<i>Erkin Malik</i>)	10
Qish (<i>Tursunboy Adashboyev</i>)	11
Oy allasi (<i>Odil Abdurahmon</i>)	13
Shamol va quyosh (<i>Ezop</i>)	14
Vatan (<i>Miraziz A‘zam</i>)	16
Yagonadir Vataning sening (<i>Xurshid Davron</i>)	17
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	19

Biz — buyuklar avlodi

Amir Temur (<i>Muhammad Ali</i>)	21
Amir Temur o‘g‘itlari	22
G‘azal mulkining sultoni	23
Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari	23
Alisherning yoshligi (<i>Oybek</i>)	25
Non isi (<i>Rivoyat</i>)	27
Abu Ali ibn Sino	28
Kitobga mehr (<i>Mirkarim Osim</i>)	29

Buyuk munajjim	30
Shoh va shoir	31
Ona sabog‘i (<i>G‘iyos Komilov</i>)	32
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	34

Ko‘klam — yashnaydi olam

Bahor kelgach (<i>Tursunboy Adashboyev</i>)	36
Lola (<i>Hamid Olimjon</i>)	37
Ona allasi (<i>Rivoyat</i>)	38
Mehribon oyijonim (<i>Po‘lat Mo‘min</i>)	39
Bekinmachoq (<i>Anvar Obidjon</i>)	41
Navro‘z (<i>Rauf Tolib</i>)	42
Navro‘z bayrami	43
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	45

Ilm — aql chirog‘i

Maktab — oftob qo‘shig‘i (<i>Quddus Muhammadiy</i>)	47
Kitobni asrang	48
Kitobim, jon kitobim (<i>Dilshod Rajab</i>)	49
O‘quv va bilim haqida (<i>Yusuf Xos Hojib</i>)	50
Kompyuter	52
Yaxshi niyat (<i>Anvar Obidjon</i>)	53
Aqlli qarg‘a (<i>Abdulla Avloniy</i>)	54
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	56

Xalq o'giti — baxt kaliti

Sher va sichqon (<i>Ertak</i>)	58
Maymun va duradgor (<i>Ertak</i>)	60
Rostgo'y bola (<i>Ertak</i>)	62
Maqollar	64
Topishmoqlar	65
Laylak keldi — yoz bo'ldi (<i>Qo'shiq</i>)	67
Latifalar	68
<i>Bo'lim yuzasidan takrorlash</i>	69

Odob — insonga husn

Oftob va odob (<i>Po'lat Mo'min</i>)	71
Odob (<i>Rivoyat</i>)	72
Kapalak (<i>Mirmuhsin</i>)	73
Maslahat (<i>Iskandar Rahmon</i>)	75
Taqsim (<i>Abdulla Avloniy</i>)	77
Xotira va qadr (<i>Dilshod Rajab</i>)	79
Chiroyli salom (<i>Safar Barnoyev</i>)	80
<i>Bo'lim yuzasidan takrorlash</i>	82

Mehnatning tagi — rohat

Aqlli bog'bon (<i>Ertak</i>)	84
Soqi bilan onasi (<i>Abdulla Avloniy</i>)	86
Yer nima der? (<i>Po'lat Mo'min</i>)	88
Tugma (<i>Shuhrat</i>)	89

Maqtanchoq g'oz (<i>Abdulla Avloniy</i>)	90
Ona yer (<i>Ibrohim Rahim</i>)	91
Yurak (<i>Rivoyat</i>)	93
<i>Bo'lim yuzasidan takrorlash</i>	95

Mustaqil o'qish uchun

O'zbek elim (<i>Odil Abdurahmon</i>)	97
Musavvir (<i>Erkin Malik</i>)	98
Quyoshdan erta turib (<i>Yo'ldosh Sulaymon</i>) . .	100
Rivoyat	101
Chinor va maysalar (<i>Olloyor Begaliyev</i>)	102
Ulug'bek bobom (<i>Po'lat Mo'min</i>)	104
Boychechak (<i>Muhtarama</i>)	105
Otam o'giti, onam oq suti (<i>Po'lat Mo'min</i>)	106
Qushcha (<i>Abdulla Oripov</i>)	107
Buloq va daraxt (<i>Zamira Ibrohimova</i>)	108
Dil so'zlari (<i>Habib Rahmat</i>).	110
Yo'qolgan ko'zoynak (<i>Kavsar Turdiyeva</i>) . .	111
Hakka va uning bolalari (<i>Ertak</i>).	113
Olma (<i>To'lqin Ilhomov</i>)	115
Arpa-bug'doy osh bo'lur (<i>Abdusodiq Irisov</i>) . .	117
Oltin quyosh (<i>Miraziz A'zam</i>)	119
Aql va boylik (<i>Ertak</i>)	120
Men oromgoh bolasi (<i>Zaynab Begim</i>) . . .	121
Topishmoqlar	122
Tez aytish	123

O'quv nashri

TAL'AT G'AFFOROVA,
ERGASH SHODMONOV,
GULBODOM ESHTURDIYEVA

O'QISH KITOBI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik

O'n uchinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2017

Rassomlar: *Rustam Zufarov, Laylo Basharova,
Gennadiy Jirnov, Tohir To'xtayev, Umid Sulaymonov*

Muharrir *E. Bozorov*
Badiiy muharrir *F. Basharova*
Texnik muharrir *D. Gabdraxmanova*
Musahhihlar: *M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova*
Kompyuterda sahifalovchi *A. Nisanbayeva*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011.

Tayyor fayldan bosishga ruxsat etildi ...
Bichimi 70x90¹/₁₆. «Pragmatic» garniturasida. Kegli 18 shponli.
Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 9,36.
Nashriyot-hisob tabog'i 9,0.
Adadi ... nusxa. Buyurtma № ...

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**